

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA NASRIY ASARLARNI O'QITISHNING BUGUNGI HOLATI

*Norqulov Nurzod Saidmurodovich,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori Marg'uba Abdullayeva taqrizi asosida*

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРОЗЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

*Норкулов Нурзод Саидмуродович
Старший преподаватель Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои*

THE CURRENT STATE OF PROSE TEACHING IN SECONDARY SCHOOLS

*Norkulov Nurzod Saidmurodovich
Senior lecturer at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi*



<https://orcid.org/0009-0004-9051-1206>

nurzod4100@gmail.com
(94) 344-41-00

Annotatsiya: Maqolada bugungi umumta'lim maktablarida sinflar kesimida mumtoz nasriy asarlarni o'qitishning bugungi kundagi holati, mumtoz nasriy asarlarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati, darsliklardagi mumtoz nasriy asarlarning bugungi holati tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, darslik, mumtoz nasr, o'qitish, hikoyat, majoziy timsol.

Annotation: In the article, the current state of teaching classical prose works in the cross section of classes in today's secondary schools, the importance of classical prose works in youth education, the current state of classical prose works in textbooks are subject to analysis.

Key words: education, textbook, classical prose, teaching, wisdom, figurative embodiment.

Аннотация: В статье приводится анализ современного состояния преподавания классической прозы в современных общеобразовательных школах в разрезе классов, значение классической прозы в воспитании молодежи, современное состояние классической прозы в учебниках.

Ключевые слова: образование, учебник, классическая проза, учение, мудрость, образное воплощение.

Kirish. Mumtoz allomalarimiz ijodi hadsiz, hududsiz ummon. Ularni o'rganish va o'rgatish bugungi o'qituvchi va o'quvchidan chuqur tafakkur talab qiladi. Mumtoz nasriy asarlarimiz asrlar osha o'z qadr-qimmatini saqlab kelayotganligi ham mana shunda. Mutafakkirlarning falsafiy, pand-nasihat yo'g'rilgan asarlari ta'lim bosqichlarida o'quvchi ma'naviyatini yuksaltirishning muhim vositasi sanaladi. Bugungi ta'limning vazifasi barkamol

shaxsni hayotga tayyorlash. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli dunyoda ko'zi kichik ekranga bog'lanib qolgan o'quvchilarda ezgulik, bag'rikenglik, to'g'rilik kabi tuyg'ularni shakllantirish uchun adabiyot o'qitish samaradorligini oshirishga har qachongidan ko'ra ko'proq ehtiyoj bor. Adabiyot o'qitishning maqsadi badiiy asarlar yordamida sog'lom e'tiqodli, mustaqil fikrli, o'tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan

barkamol, aqlan yetuk, o'zga insonning tuyg'ularini angalaydigan, o'z xatti-harakatlariga xolis baho bera oladigan shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat.

Amaldagi ta'lim tizimidagi darsliklarda mumtoz nasr namunalari sinflar kesimida qanday kiritilgan? Ularni o'quvchi yoshlarga o'rgatishda pedagoglarimiz qanday muammolarga duch

kelishmoqda?, bu muammolarning kelib chiqish sabablari va oqibatlari?, kabi savollarni tadqiqotimiz davomida ko'rib chiqamiz. Bugungi amaldagi ta'lim tizimida 5-sinfdan 11-sinfgacha bo'lgan "Adabiyot" darsliklarini o'rganib chiqdik va unda mumtoz nasriy asarlardan namunalarni quyidagicha berilganligini guvohi bo'ldik:

Sinf	Darslik	Mualliflar	Nashriyot	Mavzu	Soat
5	"Adabiyot"	S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev	"Sharq"- 2020	"Hayrat ul-abror" dostoni	1
				"Sher bilan Durroj" hikoyat	3
5	"Adabiyot"	S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev	"Sharq"-2020	Sa'diy Sheroziy "Guliston"	3
9	"Adabiyot"	Q.Yo'ldoshev, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov	"O'ZBEKISTON" NMIU T o s h k e n t – 2019	Xoja hikoyatlari	3
11	"Adabiyot"	Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova	Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent—2018	Nosiruddin Rabg'uziy. "Qissasi Rabg'uziy"	4

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, bugungi maktab darsligiga kiritilgan mumtoz nasriy asarlar juda kam qismni tashkil qiladi. Shunday ekan har bir o'quvchi bu asarlar orqali mumtoz asarlarimiz mohiyatini tushunib yetadimi? Ko'zlangan maqsadga erisha olamizmi?, degan savolga javobi aniq juda qiyin. Sababi yangi darslikda oldin kiritilgan Gulxaniyning "Zarbulmasal", Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub", Boburning "Boburnoma" kabi mashhur mumtoz nasriy asarlari negadir o'rin olmagan. Bu mumtoz nasriy asarlarimizga nisbatan qiziqishni susaytirishi kundek ravshan. Sababi serqirra ijodkor, maktab dasturida chuqur o'rganilishi shart bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida barcha

sohalarga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Olimlarning e'tirof etishlaricha, "Boburnoma" asarida uning yigirmadan ortiq sohalarga qiziqqanligi haqidagi ma'lumotlar mavjud. U bir o'rinda san'atshunoslikka to'xtalsa, boshqa joyda xalq hayoti bilan bog'liq muhim tarixiy voqealarni qalamga oladi. Shuning barobarida, nabotot va hayvonot olamiga oid ma'lumotlarni xalq hayotida tutgan ahamiyati xususida ham to'xtalib o'tadi. Tabiatan hazil-mutoyibaga usta, xalq urf-odatlarini, til boyliklarini, maqol, matal, naql va rivoyatlarini, hajv va yumorini chuqur bilgan shaxs Gulxaniy ijodining o'ziga xos o'rni bor. Uning "Zarbulmasal" asari o'z davrining voqea holatlarini ko'rsata olgan. Ayniqsa, o'sha

davrdagi ochlik va yupunlikdan azob chekkan kambag'al xalq ahvolini ro'y-rost ko'rsatib bergan. Ushbu asarida tasvirlangan majoziy timsollar orqali aytilgan fikrlar maktab o'quvchilarining ta'lim-tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Xususan, "Toshbaqa bilan Chayon" masalida do'stlik, sadoqat, odamlarga shafqatli-muruvvatli bo'lish kabi fazilatlar ulug'lanadi, xiyonat, firibgarlik kabi yaramas xususiyatlar qoralanadi. Sangpush (Toshbaqa) va Aqrab (Chayon) haqidagi tamsiliy hikoya Gulxaniygacha bo'lgan forsiy va turkiy adabiyotlarda ham uchraydi. Biroq, Gulxaniy bu syujetga ijodiy yondashadi. Chayon va Toshbaqa obrazlariga xos tasvirlarni, dramatik holatlarni keskinlashtiradi. "Maymun bilan Najjor" - bu masal axloqiy-tarbiyaviy mavzudagi asar bo'lib ishning mohiyatini bilmay pala-partish kirishuvchi va oxirida o'zi sharmanda bo'lib qoluvchi kishilarga o'git-nasihatchilik tarzida yozilgan. Bu asar majoz va masallar, xalqning jonli iboralari asosiga qurilgan asar bo'lganligi uchun tili, badiiy xususiyatlari va uslubi jihatidan nihoyatda jozibali, go'zal qissadir. Badiiy tasvir vositalarining o'tkirligi jihatidan o'zbekcha nasriy badiiy yodgorliklar ichida unga teng keladigan asar yo'q.

Alisher Navoiyning "Mahub ul-qulub" asarida ilgari surilgan odob-axloq g'oyalari to'g'risida fikr borar ekan, kishilarning ezgu sifatleri – saxiylik, mehribonlik, hilm, rostgo'ylik, mehnatkashlik, kamtarlik, tavoze' singari qator fazilatlar ulug'lanadi. Takabburlik, dangasalik, fisqu fasod, yolg'onchilik, firibgarlik, johillik, ochko'zlikni hazrat Navoiy insoniylikka zid illatlar deb biladi. Asarda mutafakkir uzoq yillik hayotiy tajribasi, kuzatishlari asosida chiqargan xulosalarini original fikrlar orqali mulohaza qiladi. Asarning bir qancha boblari odob-axloq va ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan. Navoiy odob-axloq haqida fikr yuritar ekan, yaramas odat va xulq-atvorlarni shafqatsiz qoralaydi, olijanob insoniy fazilatlarini esa yuksak qadrlaydi, bolalarni o'qish,

o'rganish va go'zal odobli, a'lo xulqli bo'lishga chaqiradi.

Yuqoridagi asarlar haqida adabiy ta'limda o'quvchilarga atroflicha ma'lumot berib o'tilmas ekan, o'quvchilar Alisher Navoiy, Bobur, Gulxaniylar yashagan davr haqida, ularning yoshlar tarbiyasi qolaversa, ta'lim olish, hunar o'rganish haqidagi qarashlari haqida tasavvurga qanday ega bo'ladi? Eng muhimi, bu kabi mashxur adiblarimizning bunday asarlari adabiy ta'limda o'quvchilarning ma'naviyatini yuksaltirishda, dunyoqarashini kengaytirishda, dunyoni ilmiy jihatdan bilib borishda katta ahamiyatga egaligini hisobga olsak, bu asarlar maktab darsliklariga kiritilishi zarur, deb o'ylaymiz.

Umumta'lim maktablarida mumtoz nasriy asarlarimizni o'qitishdagi muammolarning ichki va tashqi omillari mavjud. Ichki omillarga mumtoz adabiyotning shakli, mazmuni tabiatidagi mavjud bo'lgan xususiyatlar kiradi. Tashqi omillarga esa qarash, munosabat va yondashuvlarning turlichaligidan iboratdir [2] deb ko'rsatadi, Valijon Qodirov o'z tadqiqotida. Bizningcha ham shunday, ichki omillarga kiritilayotgan mumtoz adabiyotning shakli deyilganida, darslikka kiritilgan mumtoz nasriy asarlarning yaratilgan davrdagi asliy matni nazarda tutilayotgan bo'lsa, mazmuniga asarlarning lug'aviy tarkibidagi qiyinchilikda ko'rinadi. Haqiqatan, mumtoz nasriy asarlarda arxaik va o'zlashgan so'zlar ko'p qo'llanganligi buning yaqqol dalilidir. O'zlashgan so'zlarning aksariyati arab va fors tillariga tegishli bo'lib, ularning *lug'aviy* hamda *matniy* (kontekstaul) ma'nosini aniqlash lozim bo'ladi. Vaholanki, o'zlashgan so'zlarning aksariyati hozirgi so'zlashuv tilimizda uchramaydi.

Misol uchun amaldagi 5-sinf darsligidan o‘rin olgan “Hayrat ul-abror” dostonidan “Sher bilan Durroj” hikoyatiga to‘xtalsak. Darslikda bu dastlab asl matnda nazm shaklda berilgan [3]. Berilgan asl matn tarkibida o‘quvchilar tushinishi qiyin bo‘lgan, hozirgi so‘zlashuv nutqida nafaol bo‘lgan so‘zlar talaygina topiladi. O‘qilayotgan asardagi har uch-to‘rt so‘zning bittasi notanish, nutqiy faoliyatida qo‘llanilmagan bo‘lsa, ta’lim ishtirokchilarining ishtiyoqi so‘nadi, bu o‘z navbatida o‘quvchilar va ba’zi o‘qituvchilarning hikoyaning asl matnidani chetlashib uning nasriy bayoni bilan chegaralanib qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Bugungi adabiy ta’limda mumtoz nasriy asarlarni o‘rgatishdagi murakkabliklardan biri tasavvuf ta’limotining mumtoz asarlar poetikasiga ta’siri masalalari bo‘yicha o‘qituvchilar bilimining yetarli emasligida. Tasavvuf ta’limoti bizda nisbatan keyinroq o‘rganishga kirishilgan ilm bo‘lib, unga bo‘lgan munosabat, qarashlar endigina shakllanmoqda. U haqida yetarli tasavvur va to‘xtamga kelish uchun hali ko‘p ishlar qilinishi kerak.

Bugungi globallashuv ta’sirida jamiyatimizda ma’naviy evrilishlar kuzatilayotgani hech kimga sir emas. Ma’naviy bo‘shliqni to‘ldirish, milliy qadriyatlarimizni saqlab qolish, sabr-qanoatli, irodali shaxsni tarbiyalashda donishmand mutafakkirlarimiz ijodini mukammal

o‘rganish davr talabidir. Bu borada 2018-yil 15-may sanasidagi PQ-3721-raqamli “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori [1] umumta’lim bosqichlarida mumtoz asarlarni o‘qitish zaruriy shart-sharoit ekanligining isboti bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3721-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018-y., 07/20/3721/0851-son.
2. Qodirov V. A. Umumta’lim maktablarida mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. Namangan, 2019.
3. S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev 5-sinflar uchun adabiyot darslik. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T. – 2020.
4. Alisher Navoiy. Mahbub-ul-qulub (16-tom). – T: Fan, 2000.
5. Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2018.

